

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA TALABALAR IJTIMOY FAOLLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI

Karimov Zohidjon Abduvaliyevich

Mustaqil tadqiqotchi

Samarqand davlat pedagogika instituti

kzuzbitta@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli texnologiyalar vositasida talabalar ijtimoiy faolligini oshirishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilingan. Raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishning zamonaviy mexanizmlari, ularning fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash hamda jamoatchilik hayotidagi ishtirokini kengaytirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda ijtimoiy tarmoqlar, raqamli platformalar, elektron ta'lim resurslari va interaktiv kommunikatsiya vositalarining talabalarning ijtimoiy faolligiga ta'siri o'rganilgan. Shuningdek, raqamli muhitda talabalarning tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlash, volontyorlik faoliyatini rivojlantirish va ijtimoiy loyihalarda ishtirokini rag'batlantirishning samarali usullari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Raqamli texnologiyalar, talabalar, ijtimoiy faollik, raqamli platformalar, fuqarolik pozitsiyasi, ijtimoiy loyihalar, volontyorlik faoliyati, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, innovatsion yondashuvlar.

KIRISH

XXI asrda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi jamiyat hayotining barcha sohalarida chuqur o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng qo'llanilishi yoshlarning ijtimoiy faolligi, fuqarolik pozitsiyasi va jamoatchilik hayotidagi ishtiroki shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bugungi kunda talabalar nafaqat ta'lim jarayonining faol ishtirokchilari, balki jamiyat taraqqiyotining muhim ijtimoiy subyektlari sifatida ham e'tirof etilmoqda. Shu bois ularning ijtimoiy faolligini rivojlantirish, tashabbuskorlik salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy mas'uliyatini oshirish zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Globalashuv va raqamlashtirish jarayonlari natijasida yoshlarning ijtimoiy munosabatlari tobora virtual makonga ko'chib bormoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, raqamli platformalar, mobil ilovalar va elektron kommunikatsiya vositalari yoshlarning dunyoqarashi, qadriyatlari va ijtimoiy xulq-atvoriga ta'sir etuvchi muhim omillarga aylanmoqda. Bunday sharoitda talabalarning ijtimoiy faolligini oshirishning an'anaviy usullari bilan bir qatorda raqamli texnologiyalarning imkoniyatlaridan samarali foydalanish zarurati yuzaga kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish, ularning ijtimoiy hayotdagi faolligini qo'llab-quvvatlash hamda raqamli iqtisodiyot va raqamli jamiyatni rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Oliy

ta’lim tizimida ham talabalarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularni turli ijtimoiy loyihalar, volontyorlik harakatlari, innovatsion tashabbuslar va jamoatchilik tadbirlariga keng jalb etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda raqamli texnologiyalar talabalarning ijtimoiy tashabbuslarini qo’llab-quvvatlash, ular o’rtasida samarali muloqotni tashkil etish va jamoatchilik faoliyatini muvofiqlashtirishning muhim vositasiga aylanmoqda.

Shu bilan birga, raqamli muhitning kengayishi bilan bog’liq ayrim muammolar ham mavjud. Xususan, yoshlarning virtual makonda haddan tashqari ko’p vaqt o’tkazishi, axborot manipulyatsiyasi, kiberxavfsizlik tahdidlari hamda ijtimoiy tarmoqlardagi salbiy ta’sirlar ularning ijtimoiy faolligi va fuqarolik mas’uliyatiga salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkin. Mazkur holatlar talabalarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning pedagogik va ijtimoiy mexanizmlarini ilmiy asosda tadqiq etishni taqozo etadi.

Raqamli texnologiyalar vositasida yoshlar va talabalar ijtimoiy faolligini rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogika, sotsiologiya, psixologiya hamda ta’lim falsafasining muhim tadqiqot yo’nalishlaridan biri hisoblanadi. Axborotlashgan jamiyat sharoitida ijtimoiy munosabatlarning transformatsiyalashuvi, kommunikatsiya vositalarining takomillashuvi va raqamli madaniyatning shakllanishi yoshlarning ijtimoiy hayotdagi ishtirokiga yangicha mazmun bag’ishlamoqda. Shu sababli ilmiy adabiyotlarda raqamli texnologiyalarning yoshlar faolligi, fuqarolik mas’uliyati va ijtimoiy integratsiyasiga ta’siri masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Xorijiy tadqiqotchilar orasida M. Castellsning axborotlashgan jamiyat va tarmoq jamiyati haqidagi konsepsiyasi alohida ahamiyatga ega. Olimning fikricha, zamonaviy jamiyatning rivojlanishi axborot oqimlari va raqamli kommunikatsiya tarmoqlari bilan chambarchas bog’liq bo’lib, ular shaxsning ijtimoiy faolligi va jamiyatdagi ishtirok shakllarini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. H. Jenkins tomonidan ilgari surilgan ishtirokchilik madaniyati (participatory culture) nazariyasida esa raqamli texnologiyalar yoshlarning ijtimoiy tashabbuslari va jamoatchilik faoliyatini rivojlantirish vositasi sifatida talqin etiladi.

Yoshlarning raqamli muhitdagi faoliyati masalalari Y. Masuda, D. Bell, M. Prensky, P. Drucker kabi olimlarning tadqiqotlarida ham keng yoritilgan. Ularning ilmiy qarashlarida axborot jamiyatining shakllanishi, bilimlar iqtisodiyoti va raqamli avlodning ijtimoiy xususiyatlari tahlil qilingan. Mazkur nazariyalar zamonaviy talabalarning ijtimoiy faolligini raqamli texnologiyalar orqali rivojlantirishning ilmiy asoslarini tushunishga xizmat qiladi.

O’zbekistonlik olimlarning ilmiy ishlarida ham yoshlar siyosati, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy faollik va ta’limni raqamlashtirish masalalari keng o’rganilgan. Tadqiqotlarda yoshlarning ijtimoiy jarayonlardagi ishtiroki, ularning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi, raqamli madaniyatini rivojlantirish hamda zamonaviy axborot makonida faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan.

Mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko’rsatadiki, raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayonidagi o’rni va ahamiyati yetarlicha tadqiq etilgan bo’lsa-da, talabalar ijtimoiy faolligini oshirishning pedagogik mexanizmlari, ayniqsa, raqamli platformalar va

kommunikatsiya vositalari orqali ijtimoiy tashabbuslarni rivojlantirish masalalari hali ham qo‘shimcha ilmiy izlanishlarni talab etadi. Bu esa mazkur mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning metodologik asosini tizimli yondashuv, faoliyatli yondashuv, aksiologik yondashuv va kompetensiyaviy yondashuv tashkil etadi. Tizimli yondashuv orqali talabalar ijtimoiy faolligi yaxlit ijtimoiy-pedagogik hodisa sifatida tahlil qilindi. Faoliyatli yondashuv asosida talabalarning ijtimoiy loyihalar, jamoatchilik ishlari va raqamli tashabbuslardagi ishtiroki o‘rganildi. Aksiologik yondashuv talabalarda fuqarolik mas’uliyati, ijtimoiy qadriyatlar va ma’naviy fazilatlarining shakllanish jarayonini tahlil qilishga xizmat qildi. Kompetensiyaviy yondashuv esa raqamli texnologiyalar vositasida rivojlantiriladigan ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyalarni aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqot davomida ilmiy bilishning tahlil va sintez, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi. Shuningdek, ilmiy manbalarni o‘rganish, normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish hamda zamonaviy pedagogik tajribalarni umumlashtirish metodlari qo‘llanildi. Ushbu metodlar yordamida raqamli texnologiyalar vositasida talabalar ijtimoiy faolligini oshirishning mavjud holati, muammolari va istiqbolli rivojlanish yo‘nalishlari aniqlandi.

Zamonaviy axborotlashgan jamiyatda talabalarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish ta’lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ijtimoiy faollik shaxsning jamiyat hayotida ongli ravishda ishtirok etishi, ijtimoiy tashabbuslarni ilgari surishi, jamoatchilik ishlarida faol qatnashishi hamda fuqarolik mas’uliyatini namoyon etishi bilan tavsiflanadi. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi mazkur jarayonni yangi bosqichga olib chiqib, talabalarning ijtimoiy faoliyatini tashkil etish va boshqarishning innovatsion imkoniyatlarini yuzaga keltirdi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda talabalarning aksariyati axborot olish, muloqot qilish va jamoatchilik faoliyatida qatnashishda raqamli texnologiyalardan muntazam foydalanadi. Ijtimoiy tarmoqlar, mobil ilovalar, elektron platformalar va virtual hamjamiyatlar yoshlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishning muhim vositasiga aylanmoqda. Mazkur vositalar orqali talabalar turli ijtimoiy loyihalar, xayriya tadbirlari, volontyorlik harakatlari va fuqarolik tashabbuslarida faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda.

Raqamli texnologiyalar vositasida talabalar ijtimoiy faolligini oshirishning birinchi muhim mexanizmi raqamli kommunikatsiya muhitini shakllantirishdir. Telegram, Facebook, Instagram, YouTube va boshqa kommunikativ platformalar talabalar o‘rtasida tezkor axborot almashinuvi, jamoaviy muhokamalar va ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirish imkonini beradi. Natijada talabalar turli ijtimoiy masalalarga befarq bo‘lmay, ularga munosabat bildirish va muammolar yechimiga o‘z hissasini qo‘shishga intiladi.

Ikkinchi mexanizm sifatida ijtimoiy loyihalarni raqamli platformalar orqali tashkil etish alohida ahamiyatga ega. Oliy ta’lim muassasalarida ekologiya, sog‘lom turmush tarzi, ma’naviy-ma’rifiy rivojlanish, volontyorlik va xayriya faoliyatlariga oid loyihalarni elektron platformalar orqali amalga oshirish talabalarning tashabbuskorlik darajasini oshiradi.

Bunday loyihalarda ishtirok etish yoshlarning liderlik qobiliyatlari, mas’uliyati va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Uchinchi mexanizm talabalarining media savodxonligini rivojlantirish bilan bog‘liq. Axborot oqimining keskin ortishi sharoitida yoshlarning axborotni tanlash, tahlil qilish va baholash ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Media savodxonlikning rivojlanishi talabalarining ijtimoiy jarayonlarga ongli munosabat bildirishiga, yolg‘on axborotlar va manipulyativ ta’sirlardan himoyalashiga yordam beradi. Bu esa o‘z navbatida ularning fuqarolik faolligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

To‘rtinchi mexanizm sifatida elektron volontyorlik faoliyatini rivojlantirishni ko‘rsatish mumkin. So‘nggi yillarda raqamli volontyorlik dunyo miqyosida keng tarqalib bormoqda. Talabalar internet tarmoqlari orqali ijtimoiy aksiyalarni tashkil etish, xayriya loyihalarini targ‘ib qilish, ekologik tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash va aholining turli qatlamlariga axborot yordami ko‘rsatishda faol ishtirok etmoqda. Bu jarayon yoshlarning ijtimoiy mas’uliyatini oshirish bilan birga ularning kasbiy va kommunikativ kompetensiyalarini ham rivojlantiradi.

Beshinchi mexanizm raqamli ta’lim platformalaridan foydalanish orqali ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishdir. Masofaviy ta’lim tizimlari, elektron kurslar va virtual seminarlar talabalarining muloqot madaniyati, jamoada ishlash ko‘nikmalari hamda ijtimoiy hamkorlik tajribasini boyitadi. Ayniqsa, loyiha asosida o‘qitish texnologiyalari va onlayn guruhli faoliyat talabalarni ijtimoiy munosabatlarning faol subyektiga aylantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar talabalarining ijtimoiy faolligini rivojlantirishda bir qator pedagogik imkoniyatlarni yaratadi. Jumladan, ular yoshlarning tashabbuskorligini qo‘llab-quvvatlaydi, jamoatchilik faoliyatida ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytiradi, fuqarolik mas’uliyatini kuchaytiradi hamda ijtimoiy muammolarni hal etishga yo‘naltirilgan amaliy faoliyatni rag‘batlantiradi.

Shu bilan birga, tadqiqot davomida ayrim muammolar ham aniqlandi. Xususan, ayrim talabalarda media madaniyatining yetarli darajada shakllanmaganligi, raqamli platformalardan maqsadsiz foydalanish, internet qaramligi va axborot xavfsizligi bilan bog‘liq tahdidlar ijtimoiy faollik samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bundan tashqari, barcha ta’lim muassasalarida raqamli infratuzilmaning bir xil darajada rivojlanmaganligi ham mazkur jarayonning samaradorligini cheklovchi omillardan biri hisoblanadi.

Xulosa: Raqamli texnologiyalar zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida yoshlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishda keng imkoniyatlar yaratmoqda. Oliy ta’lim muassasalarida talabalar ijtimoiy faolligini oshirish masalasi nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy va ma’naviy ahamiyatga ega bo‘lib, ularning fuqarolik mas’uliyati, tashabbuskorligi va jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, raqamli texnologiyalar vositasida tashkil etilgan ijtimoiy faoliyat talabalar o‘rtasida samarali kommunikatsiyani rivojlantirish, jamoatchilik

tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, volontyorlik harakatlarini kengaytirish hamda turli ijtimoiy loyihalarda faol ishtirok etish imkoniyatlarini yaratadi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar, elektron platformalar va interaktiv raqamli vositalar yoshlarning ijtimoiy jarayonlarga jalb etilish darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Tahlillar asosida raqamli texnologiyalar yordamida talabalar ijtimoiy faolligini rivojlantirishning asosiy mexanizmlari sifatida raqamli kommunikatsiya muhitini shakllantirish, media savodxonlikni rivojlantirish, elektron volontyorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy loyihalarni raqamli platformalar asosida tashkil etish hamda ijtimoiy faollik monitoringini yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Ushbu mexanizmlar talabalarning fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish, jamoaviy faoliyatga tayyorlash va ijtimoiy mas'uliyat hissini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 464 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son Farmoni. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida.
3. Castells M. The Rise of the Network Society. – Oxford: Blackwell Publishers, 2010. – 597 p.
4. Jenkins H. Confronting the Challenges of Participatory Culture: Media Education for the 21st Century. – Cambridge: MIT Press, 2009. – 145 p.
5. Prensky M. Digital Natives, Digital Immigrants // On the Horizon. – 2001. – Vol. 9. – No. 5. – P. 1–6.
6. Siemens G. Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age // International Journal of Instructional Technology and Distance Learning. – 2005. – Vol. 2. – No. 1. – P. 3–10.
7. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. – 208 b.
8. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'limda axborot texnologiyalarini joriy etish nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan, 2007. – 145 b.